

LINGVISTIKADA STIL VA STILISTIKA MASALASINING TADQIQI

Mirzabaev Saparbek,

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti, Nukus;
smirzabaev018@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18902757>

Annotatsiya. Ushbu ishimizda stil va stilistika sohasining paydo bo‘lishi, o‘rganilishi va bugungi kungacha rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan to‘xtalib o‘tamiz. Bunda mazkur sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan mashhur olimlarning asarlari va fikrlariga e‘tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: Stil, stilistika, lingvistika, G‘arb stilistikasi, Sh.Balli, rus stilistikasi V.V.Vinogradov, turkiy xalqlar stilistikasi va h.k.

Аннотация. В данной работе мы сосредоточимся на возникновении, изучении и развитии области стиля и стилистики с исторической точки зрения. При этом обратим внимание на труды и мнения известных ученых, внесших вклад в развитие данной сферы.

Ключевые слова: Стиль, стилистика, лингвистика, западная стилистика, Ш. Балли, русская стилистика В.В. Виноградов, стилистика тюркских народов и т.д.

Abstract. In this paper, we focus on the emergence, study, and development of the field of style and stylistics from a historical perspective. We pay particular attention to the works and opinions of renowned scholars who have contributed to the advancement of this field.

Keywords: Style, stylistics, linguistics, Western stylistics, Charles Bally, Russian stylistics, V.V. Vinogradov, stylistics of Turkic peoples, etc.

"Stilistika" atamasi til va adabiyotshunoslik fanlarida XIX asrning o‘rtalaridan boshlab qo‘llanila boshlandi [Бекбергенов А. 1990: 3]. "Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati"da stilistika va stil so‘zlariga quyidagicha ta‘rif beriladi: Stilistika - ot (gr. - xat tayoqchasi.) 1. Tilshunoslikning til va nutq birliklarini o‘rinli qo‘llashni, tilning badiiy vositalarini o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Uslub haqidagi ilm. 3. Adabiyotshunoslik nazariyasining badiiy adabiyot asarlarining til xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi [ҚТТС. 6-том 2023: 328]. Bu ta‘riflar ham stilistikaning butun bir til bilan chambarchas bog‘liq holda mavjudligini ko‘rsatib turibdi. Til, uning tarkibiy qismlari va ulardan foydalanish - mana, bularning barchasi stilistikaning o‘rganadigan obyektlari hisoblanadi. Shuning uchun, stilistika fanining o‘zi ham o‘rganadigan til obyektining nima ekanligidan kelib chiqqan holda bir necha sohalarga (nutq stilistikasi, amaliy stilistika, funksional stilistika, badiiy adabiyot stilistikasi, fonostilistika, leksik stilistika va h.k.) bo‘lib o‘rganiladi. Stilistikaning bunday bo‘lib mayda qismlarga bo‘lib o‘rganilishi va bu fanning asosiy maqsad-vazifasi haqida qozoq tilini o‘rganuvchi R.Sizdiqova bunday deb yozadi: "Bu sohaning asosiy vazifasi ma‘lum bir badiiy asarda bunday til birliklari qo‘llanilgan deb aytib o‘tish bilan cheklanmay, balki o‘sha biz tahlil qiladigan birliklarning qo‘llanilish o‘rni va

holatiga ilmiy fikr bildirish hisoblanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, har qanday tadqiqot birligining nima uchun, qanday maqsadda qo'llanilayotganini aniqlash orqali badiiy asarga va ijodkor mahoratiga tegishli baho berishni maqsad qilib belgilaydi [Сыздыкова Р. 2014: 44]."

Stilistikaning qaysi fan tarkibiga mansubligi, maqsad-vazifalari, tadqiqot obyektini haqida bugungi kunga qadar keng ko'lamlı ishlar qilingan bo'lsa-da, stilistika, uslub va uning turlarini tasnıflash masalasi xususida olimlarning fikrlari turlicha bo'lib qolmoqda. Biz ularning ayrimlariga to'xtalib o'tishni ma'qul ko'ramiz.

XVIII asrda romantizm davrida uslub - odamning yakka o'zi gapirishi yoki yozish usuli deb qaralgan. Buni fransuz olimi J.L.L.Byuffon 1753-yilda: "Stil - bu odamning o'zi", -degan edi [Лингвистический энциклопедический словарь. 1990: 45].

Stilistikani tor doirada, filologik yo'nalishda o'rganish holati Amerika, Yevropa va rus tilshunosligida XX asrga kelibgina ko'zga tashlana boshladi. Xususan, Rus tilshunosligida XX asrning 20-yillarida, Yevropada Praga lingvistik maktabida XX asrning 30-40-yillarida boshlangan bo'lsa, Amerika deskriptiv lingvistikasida o'rganish XX asrning 50-yillarida amalga oshirilgan. Keyingi davrlarda stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishida Sh.Ballining asarlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning asarlarida bir qancha sinonimik shakllar va ularning sinonimik qatorlari ko'rsatilib, shu sinonimik qatordagi bir shakl "neytral fon," qolganlari esa o'zining qo'shimcha (stilistik) bo'yoqlari bilan ajralib turishi aytiladi. Bunday qo'shimcha bo'yoq - pastki, ya'ni og'zaki yoki yuqori, ya'ni "kitobiy" ekanligi asos qilib olingan [Лингвистический энциклопедический словарь. 2008: 45].

Rus tilshunosligida G.O.Vinokur, L.B.Cherva, V.V.Vinogradov, R.A.Budagov, N.D.Arutyunova, T.G.Vinokur, A.N.Kojin, M.N.Kojina, V.N.Teliya, G.Ya.Solganik kabi olimlar shug'illangan bo'lsa, qozoq tilshunosligida bu stilistika masalasi bilan M.Balaqayev, E.Janpeysov, F.Musabekova, R.Sizdiq, M.Serg'aliyevlar, O'zbek tilshunosligida A.Shomaqsudov, I.Rasulov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, S.Karimov kabi olimlar umumiy stilistik masalalar bilan shug'ullangan. Shuningdek, turkologiyada ham stilistik asarlar yaratgan olimlar ko'plab topiladi [Бекбергенов К. 2001: 21]

Umumlashtirib aytganda, umuman sobiq ittifoq hududida stilistikaning milliy tillar nuqtayi nazaridan o'rganilishi XX asrning 50-yillaridan boshlanadi. Bunga alohida turtki bergan narsa - bu olim V.V.Vinogradovning o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab ifodalana boshlagan yangicha nuqtai nazardan yozilgan asarlari desak yanglishmaymiz.

Stilistika bo'yicha ko'plab olimlar shug'ullanganligi ma'lum, lekin biz bu ishimizda barcha fikrlarni tahlil qilib, ularga ta'rif berish imkoniyatiga ega emasmiz, shuning uchun ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

V.V.Vinogradov: "Milliy til stilistikasi tilning barcha tomonini qamrab oladi, lekin u ma'lum bir lisoniy holatning tarixiy rivojlanishidagi yaxlit til qurilishining ichki bog'langan elementlari sifatida emas, faqat funksional differensiya, u yoki bu darajada bir xil bo'lgan ma'noviy munosabatlarning bir-biriga yaqin, parallel yoki sinonimik vositalarning o'zaro munosabati va ta'siri ham turli nutqiy ta'sirlar orqali ekspressiv ma'no va ottenkalarining mos kelish rakursidan qaraydi; ikkinchi tomondan esa, stilistika bu hodisalarni nutqiy jarayonning alohida shakli yoki ijtimoiy chegaralangan tiplari va ko'rinishlari bilan bog'lab o'rganadi [Виноградов В.В. 1955: 66]".

M.N.Kojina: "Umumiy ma'noda stilistikani nutqdagi ekspressiv vositalar va bayonning mazmuni, maqsadi va kommunikatsiya doirasiga bog'liq holda til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishni asosiy mezon qilib belgilab qo'yilgan tilning amal qilish qonuniyatlari haqidagi lingvistik fan" [Кожина М.Н. 1983: 23], - deb ta'riflaydi.

A.I.Yefimov: "Stil - bu til vositalarining qo'llanilish qonuniyatlari, jamlanish xarakteri, o'ziga xos tarkibi orqali ajralib turadigan tilning tarixiy davrlar davomida yaratilgan tarmoqlari," - deb ko'rsatadi [Ефимов А. 1968: 12].

Uslubni aniqlashda olimlarning fikrlari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, bir xil emas: birovlar uslubni turmush sohasiga, ijtimoiy vaziyatga bog'lasa, boshqalar uni o'ziga xos til vositalariga ega bo'lgan adabiy tilning tarmoqlari deb biladi. Bu kabi fikrlar rang-barangligi mavjud bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotchilar uslub tabiatiga ta'rif berganda V.V.Vinogradovning fikri ancha o'rinli va to'g'ri ifodalangan deb e'tirof etadilar: "Uslub - bu jamiyat tomonidan tushunilgan, funksiyalari belgilangan, qo'llanilish vositalarining ichki uyg'unligiga ega uslublar yig'indisi, nutqiy jarayon elementlarining muayyan umumxalq, umumiy til doirasida muayyan maqsadga xizmat qiladigan vositalarning nisbatan tanlanishi va uyg'unligidir [Куныров Р. 1992: 74.]".

Qoraqalpoq tilida uslub masalasi birinchilardan bo'lib professor E.Berdimuratovning ishlarida maxsus tarzda so'z yuritiladi. U: "stil - bu, shubhasiz, tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida turmush sohalariga, til orqali munosabatning turli shakllariga, konkret situatsiyaga bog'liq leksik-semantik, grammatik va h.k. bo'yicha shu sohaga funksional moslashuvi bilan shakllangan til vositalarining tizimi sifatida namoyon bo'ladi," - deb ta'riflaydi [Бердимуратов Е. 1973: 8].

E.Berdimuratovdan keyingi davrda qoraqalpoq tilining stilistikasi masalasi bilan shug'ullangan A.Bekbergenov hisoblanadi. Olim stilistika haqidagi o'z tadqiqotlarini "Qoraqalpoq tilining stilistikasi" nomli o'quv qo'llanmasida nashrdan chiqardi. Bu asarida u: "Stilistika - til va nutqning uslublarini o'rganadigan fan. U o'z tadqiqot obyektiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi,"-deb yozadi [Бекбергенов А. 1990: 6].

Keyingi davrlarda stilistika masalasi asosan stilistikaning funksional turlariga induktiv usulda ma'lum asarlarni tadqiqot obyekti sifatida belgilab olish yo'nalishida o'rganildi.

Xulosa qilib aytganda, stil va stilistika masalasiga oid yuqoridagi fikrlarning barchasi ham nutq jarayonida va matnlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga, ularda til funksiyalarining qo'llanishiga oid masalalarni tadqiq etishi ma'lum bo'ladi. Biroq, qoraqalpoq lingvistikasida stilistika masalasi yaxlit holda katta dissertatsion masshtabda hozirgacha o'rganilgani yo'q, shuning uchun ham bu masala o'z dolzarbligiga ega bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинің стилистикасы. Нөкіс. Қарақалпақстан. 1990.
2. Бекбергенов К. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилиндеги илимий стильдің лексика-семантикалық хәм грамматикалық өзгешеликleri. Фил.илимleri канд. дисс. Нөкіс. 2001.
3. Бердимуратов Е. Әдебий тилдің функционаллық стиллеринің раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. Нөкіс, 1973.
4. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания. – 1955, №1.
5. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. – Москва. 1968.
6. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Фил. фан номзодлик дисс. Самарканд. 1993.
7. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва. Просвещение, 1983.
8. Қарақалпақ тилинің түсиндирме сөзлиги. 6-том. Нөкіс. Қарақалпақстан. 2023.
9. Қунғуров Р., Тожиев Е., Бегматов Э. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент. 1992.
10. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва. 1990.
11. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва. Большая российская энциклопедия, 2008 (Электронная издание).
12. Сыздыкова Р. Сөз қудирети. Көптомдық шығармалар жыйнағы. Алматы. 2014.